



Yashiringan ikkita so'zni toping.
Ularning o'xshash hamda farqli tomonlarini ayting.

N+A+Q+L-N=

B+O+S+A+Y-S+L+I+K-A=



“Aql va Davlat” audioertagini
diqqat bilan tinglang.

1



1. Ertak nima haqida ekan?
2. Nega Aql bilan Davlat kuch sinashishga qaror qilishdi?
3. Ular yo'lda kimni uchratishdi?
4. Davlat o'z hunarini qanday ko'rsatdi?
5. Bolaning saroyga borib qolishiga nima sabab bo'ldi?
6. Ayting-chi, bola qaroqchilarning qarorgohiga qanday borib qoldi?
7. Aql bolani qanday yo'l bilan qutqarib qoldi?
8. Davlat Aqlning kuchliligiga, usiz hech qanday ishning bitmasligini anglashiga nima sabab bo'ldi?
9. Ertak qanday yakun topdi? Undan qanday xulosa chiqardingiz?

O'qing. Fikrlar mazmuni rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.

1. Qadim zamonda, Marg'ilon tomonda Aql bilan Davlat bo'lgan ekan.
2. Bir kuni Aql bilan Davlat ikkovlari katta shaharga borishibdi.
3. Davlatning buyrug'i bilan bolaning har bir otgan toshi tilla, har bir kesagi gavhar bo'lib yerga tushaveribdi.
4. Podsho va uning odamlari tilla va gavharlarning qayerdan kelayotganini qidira boshlashibdi.
5. Podsho bolani o'zi bilan saroyga olib ketib, o'ziga farzand qilib olibdi.
6. Podshoning rahmi kelib, bolani uyiga qo'yib yuboribdi.
7. Qaroqchilar bolani o'z qarorgohida olib qolibdi va bolaga ko'p kitoblar sotib olib beribdi.
8. Aql bolaga yordam berish niyatida choparlarini yuboribdi.
9. Davlat Aqlning kuchliligiga, usiz hech qanday ish bitmasligiga tan beribdi.

Ertakdan olingan parchalarni o'qing va voqealar rivojini so'zlab bering.

1. Qadim zamonda, Marg'ilon tomonda Aql bilan Davlat bo'lgan ekan. Bir kuni Aql bilan Davlat uchrashib qolishibdi. Ikkovlari bahslashib qolibdilar. Shunda Davlat Aqlga: – Men sendan ustun turaman. Sen bo'lmasang ham, men kun ko'raveraman. Sen keyingi o'rinda turasan, – debdi.
2. Bu paytda podsho o'z odamlari bilan sayrga chiqqan ekan. Shunda podshoning yoniga bir tilla kelib tushibdi. Podsho hayron bo'lib, uni qo'lga olib qarasa, haqiqatdan ham tilla ekan. So'ng ketma-ket gavhar ham kelib, oyog'i ostiga kelib tushibdi. Podsho va uning odamlari bu sir bilan qiziqib qolib, tilla va gavharlarning qayerdan kelayotganini qidira boshlashibdi.
3. Keyin podshoning rahmi kelib, bolani uyiga qo'yib yuboribdi.
4. – Men hech qanday gunoh ish qilganim yo'q edi-ku? Meni qo'yib yuboringlar. Mening bir qari enam bor, u – yolg'iz. Men jo'xori qo'rishim kerak, bo'lmasa xo'jayinim urishadi, – deb yig'labdi.

Ertak mazmuniga mos reja tuzing.

Soʻzlarning oʻrnini aniqlang va maqolni oʻqing.

*aql bilan olasiz doʻst kitob boʻlsangiz
bilimni yerdan olishadi oltinni qazib kitobdan*



Ertak mazmunini tuzgan rejangiz asosida qayta hikoya qilib bering.